BADIIY MATN LINGVOMADANIY TADQIQ OBYEKTI SIFATIDA

Ravshanova Mo‘tabar Kamolovna,
Ichki ishlar vazirligi Qashqadaryo akademik litseyi o’qituvchisi
Shokhjahonakhmadov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-9897-6455

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvomadaniyat tushunchasi, maqsad va vazifalari hamda badiiy matnda qo‘llanilgan lingvistik birliklar vositasida xalqning turmush tarzi, hayot tarzi va milliy mentalitetini (psixologik xususiyatlarini) aks ettiruvchi madaniy-lisoniy vositalarni ochib berilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyat, baddiy matn, lingvistik birliklar, lingvopoetik yo‘nalish

Kirish. Lingvomadaniyatshunoslik tushunchasini shu yo‘nalish asoschilaridan biri bo‘lgan V.V.Krasnix madaniyatni “Olamning milliy lisoniy manzarasi, lisoniy tafakkur bilan bog‘liqlikda tilda va turli diskurslarda ifodalanishi, saqlanishi, avloddan avlodga uzatilishi”1 deb izohlaydi. Shunday bo‘lsa-da, bir guruh tilshunoslar boshqa lug‘aviy-ma’noviy guruh birliklari ham til orqali ifodalanishi, saqlanishi hamda davrlar orqali o‘tishini ta’kidlaydilar hamda lingvomadaniyatshunoslikni alohida yo‘nalish sifatida ajratish noto‘g‘ri, deb hisoblaydilar2. Bunda tanqidchilar lingvomadaniyatshunoslikka doir madaniyat hamda tilshunoslik orasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqaga asoslangan tadqiq metodlarining mavjud ilmiy talablarga javob bermasligini sabab sifatida keltiradilar. Shunday bo‘lsa-da, aynan lingvomadaniyatshunosik yo‘nalishida turli mamlakatlarda yuzlab dissertatsiyalarning himoya qilinishi, uning tarmoqlanishi kabilar bu yo‘nalishning porloq istiqbolidan dalolat beradi.

1 Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. – Москва: Гнозис, 2002. – С.12.

2 От лингвистики к мифу: Лингвистическая культурология в поисках «этнической ментальности». Сб. статей / А. В. Павлова. – Санкт-Петербург: Антология, 2013. – С.352.

Lingvomadaniyatshunoslik sohasi tilshunoslikda inson omilini, ya’ni markazida til egasi turgan yondashuvni madaniy jihatdan chuqur o‘rganuvchi yo‘nalish bo‘lib, u til va madaniyatning o‘zaro chambarchas bog‘liqligini asos qilib oladi. Shu jihatdan lingvomadaniyatshunoslik antroposentrik paradigma doirasidagi yutuqlarning sintezi va jamlanmasidir, deyishimiz mumkin. Aksariyat lingvomadaniy tadqiqotlarda badiiy matn yoki uning muayyan qismi tahlilga tortiladi. Chunki bunday matnlarda til va madaniyatning eng zich bog‘liqligi kuzatiladi. Lingvomadaniyatshunoslik asosidagi tadqiqotlarda bosh maqsad til orqali madaniyat yoki aksincha, madaniyat orqali til xususiyatlarini ochib berish yotadi. Badiiy matn esa sanalganlar ichida eng yorqin va to‘liq tarzda namoyon bo‘ladigan maydondir. Badiiy matnda qo‘llanilgan lingvistik birliklar vositasida xalqning turmush tarzi, hayot tarzi va milliy mentalitetini (psixologik xususiyatlarini) aks ettiruvchi madaniy-lisoniy vositalarni ochib berish, tabiiyki, lingvomadaniyatshunoslik asosidagi tadqiqotlar yordamida amalga oshiriladi. “Adabiyotning so‘z san’ati ekanligi, uning birlamchi unsuri til ekanligi haqidagi haqiqatni hech kim hech qachon inkor etgan emas. Kishilik tarixida adabiyot atalmish dunyoni obrazli idrok etish san’ati yaralibdiki, bu san’atning asosiy ifoda vositasi bo‘lgan so‘z, tilni tadqiq etishdek mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi”3. Badiiy matn tahlili yana shunisi bilan muhimki, unda milliy madaniy tushunchalarni ifodalovchi birliklar ham faol qo‘llanadi.

Ta’kidlanganidek, lingvomadaniyatshunoslik nisbatan yangi yo‘nalish sanaladi. Shu sababli badiiy matnni lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tekshirish masalasi ham tadqiq muammosi sifatida qo‘yilayotganiga u qadar ko‘p bo‘lgan emas. Badiiy asar tili har qanday adabiy asarning o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida bir nechta maqsadlarda

3 Yo‘ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B.3.

tadqiq qilib kelingan. Manbalarda badiiy asar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda ikki yo‘nalish yetakchilik qilib kelganligi ta’kidlanadi:

lingvistik yo‘nalish. Tilning ma’lum bir tarixiy bosqichdagi holatini, unga xos bo‘lgan leksik, fonetik va grammatik o‘ziga xosliklarni, shuningdek, zamonaviy til bilan o‘xshashlik va farqlarni ilmiy asosda o‘rganish maqsadida o‘sha davrga tegishli adabiy-badiiy asarlarning tili tahlil qilinadi. Bu jarayonda badiiy matnlar va yozma yodgorliklar tilning holatini qayta tiklash uchun asosiy manba vazifasini o‘taydi. Lingvistik yo‘nalish til tarixini tavsiflash va tasvirlashda samarali bo‘lganligi sababli milliy tilshunosligimizda juda ko‘p tadqiqotlar amalga oshirildi;

lingvopoetik yo‘nalish. Badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan tadqiq qilishning ahamiyati juda katta, chunki u tilning poetik vazifasini ochib beradi va oddiy lingvistik vositalardan badiiy obrazlar, metaforalar va estetik ta’sir yaratish mexanizmlarini aniqlaydi. Bu yondashuv muallifning individual uslubini, tilning ritmik xususiyatlarini aniqlash, asarning estetik qiymatini oshirishdagi ahamiyatini belgilashda muhimdir. Lingvopoetik tadqiq orqali o‘quvchi matnni nafaqat mazmuni bo‘yicha, balki tilining jozibasi va ruhiy ta’siri bilan ham chuqurroq his qiladi va idrok etadi. Bunday tadqiqotlar milliy adabiy merosni saqlashda, uning avloddan avlodga o‘tkazilishida muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim jarayonida lingvopoetik tahlil talabalarda badiiy tilga nisbatan nozik did va kompetensiyani shakllantiradi. Bu lingvopoetik yondashuv adabiy asarni tarjima qilish, o‘qitish va targ‘ib qilishni yanada samarali va ilmiy asosli qilishiga xizmat qiladi4.

Ammo badiiy matnni lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tekshirish bo‘yicha zamonaviy tilshunoslikda muhim tadqiqotlar amalga oshirilmoda5. Tilning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida

4 Yo‘ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B.4.

5 Каххарова Х. Фразеология Абдулла Кадыри: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Тошкент, 1985. – С.196.; Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романидаги мактубларнинг

obyekt vazifasini bajaradigan manbaning mavjudligi va tadqiqot uchun aniq materialni tanlab olish dastlabki asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Badiiy asar, xususan, muayyan davrga tegishli matn, til va madaniyat aloqasini tekshirishda eng ishonchli manba sifatida xizmat qiladi. Eng qadimgi turkiy til davridan zamonaviy holatgacha bo‘lgan til rivojini o‘rganishda matn tushunchasi birlamchi, obyektiv va rad etib bo‘lmaydigan birlik maqomiga ega. “Lingvomadaniyatshunoslikning vazifasi millat milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi til birliklarining madaniy mazmunini yoritish; uning tili orqali madaniy stereotiplarini aniqlash va ular orqali ushbu madaniyatning qadriyatlar tizimi, umuman, idrok intizomini ochishdir”6. Boshqacha aytganda, asar qahramoni o‘zi mansub bo‘lgan xalq madaniyati, qadriyatlarini ham ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xolmanova Z., Saidaxmedova O., Nurullayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. – Toshkent: Navro‘z, 2018..

2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.

3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: Fan, 2019.

4. Abdurakhmonova, F. (2020). Ijtimoiy realiyalar va ularning tarjimasi. Tashkent State University of Economics.

5. Kasimova Z.M. “O‘tkan kunlar” asaridagi kiyim-kechakni ifodalovchi realiyalar tahlili // O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. 2023. №1(1). – B.125-130.

луғавий-маъновий услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2006. – Б.154.; Джалалова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2007. – Б.148.; Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фанл. номз. дисс... – Тошкент, 2012.-Б.146.; Қаҳрамонов А. Абдулла Қодирийнинг “Меҳробдан чаён” романи поэтикаси: Филол. фан. номз.

… дисс. – Тошкент, 2000. – Б.114.; Ziyotova S. “Mehrobdan chayon” asari leksikasi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD)…diss. – Toshkent, 2022. – B,154.

6 Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2020. – Б.59.

6. Abdulla Qodiriy.O‘tkan kunlar.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2017.

7. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. - T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.